



ISSN
E-ISSN

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№1(1) 2023



Jurnal haqida

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlan ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 072250 raqamli guvohnoma berilgan.

"Ayniy vorislari " xalqaro elektron jurnali

"Sadrididdin Ayniy saboqlari " xalqaro elektron jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Наследники Айни» международный электронный журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном электронном журнале «Наследники Айни» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Aini's Successors" international electronic journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international electronic journal "Aini's Successors" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

BOSH MUHARRIR

OBIDJON XAMIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

DILRABO QUVVATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAS'UL KOTIB

NAFOSAT O'ROQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

TAHRIR HAY'ATI:

DARMONOY O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAMSIDDIN SOLIHOV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

NURETTIN DEMIR,

Pr. Dok. (Туркия)

NAFAS SHODMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Rossiya)

SHOHIDA SHAHOBIDDINOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

MALOHAT JO'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

SHODMON SULAYMONOV,
filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

MAQSUD ASADOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor
(O'zbekiston)

HILOLA SAFAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

DILOROM YO'LDOSHEVA,
pedagogika fanlari nomzodi, professor
(O'zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O'zbekiston)

OTABEK NOSIROV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

MEHRINIGOR AXMEDOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

YARASH RO'ZIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

SADOQAT MAXMUDOVA, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
(O'zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO‘LQIN RASULOV,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari:

ERGASH QILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, professor
(O‘zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

МУСЉИХИДДИН МУХИДДИНОВ,
filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

MAHMAYUSUF IMOMZODA,
filologiya fanlari doktori, akademik (Tojikiston)

SHAVKAT HAYITOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

GULMUROD ZARIPOV,
texnika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

TAVAKKAL CHORIYEV,
filologiya fanlari nomzodi, professor
(O‘zbekiston)

BIBISH JO‘RAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

LAYLO SHARIPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

NAZORA BEKOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

ATOULLO AXMEDOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

GULI TOIROVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

LOLA NE‘MATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

BASHORAT JAMILOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(O‘zbekiston)

SUMAYRA HAVAZ,
PhD (Kanada)

NOZIMA XOLIQOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)

MUHARRIRLAR:

SHOHSANAM DAVRONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

RA‘NO RAJABOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

IXTIYOR KAMOLOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MEHRIGIYO SHIRINOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TEXNIK MUHARRIRLAR:

NASIMA Qodirova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

NIGORA Sayfullayeva

AZIMJON Qalandarov

MUSAHHIHLAR:

RO‘ZIGUL Qodirova

DILDORA Nazarova

SARVINOZ Raximova

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası professori, pedagogika
fanlari nomzodi e-mail: diloromxon.68@mail.ru

SUKUT LINGVOPRAGMATIK BIRLIK SIFATIDA

Abstrakt. Nutqiy muloqotga situativlik xos, shuning uchun uning shakllari ham, ifodaviyligi ham serqirra. Vaholanki, lison va uning hosilasi bo'lmish nutq kommunikativlik, ekspressivlik, akkumulyativlik bilan bog'liq faoliyat bo'lganligi uchun uning natijasi ham nutqning ta'sir kuchi, nutqdan ko'zlangan maqsadga erishilganlik bilan xarakterlanadi. Nutqiy muloqot lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda shunchaki voqelanishidan farqlanishi ayon.

Hozirda o'zbek tilshunosligida lingvokognitologiya yangi yo'nalish sifatida tadqiq ishlarini olib bormoqdaki, unda lisoniy birliklarning kognitiv xususiyatlarini aniqlashga kirishilgan. Milliy til va milliy tafakkur mushtarakligidan kelib chiqqan holda har bir lisoniy hodisaning kognitiv, ekspressiv, akkumulyativ jihatlarini tekshirish mazkur yo'nalishning asosiy vazifasiga aylangan. Zero, o'zbek muhitida ham tilni o'z sohibi bilan birga ijtimoiy muhit, madaniyat, milliylik kabi omillar mushtarakligida tahlil etishni davr taqozo etmoqda.

Ushbu maqolada tilning lingvopragmatikani amalga oshirish vositasi sifatida evfemik, (masalan, tibbiy evfemik) ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi noverbal birlik (sukut) sinonimiya, graduonimiya, antonimizatsiya, perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, frazeologizm, evfemizatsiya kabi verbal birliklar bilan muqoyasada tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *nutqiy muloqot, tibbiy evfemik ma'no, sinonimiya, graduonimiya, antonimizatsiya, perifraza, metafora, evfemizatsiya, noverbal vositalar: ohang, sukut*

Абстракт. Речевому общению присуща ситуативность, поэтому и его формы, и выразительность многообразны. Однако, поскольку речь Лисона и ее производная-это деятельность, связанная с коммуникативностью, выразительностью, аккумулятивностью, ее результат также характеризуется силой воздействия речи, тем, что из речи достигается намеченная цель. Понятно, что речевое общение отличается от простого воплощения языковых возможностей в той или иной материальной форме.

В настоящее время в узбекской лингвистике лингвокогнитология проводит исследовательскую работу как новое направление, в рамках которого приступают к определению когнитивных характеристик языковых единиц. Изучение когнитивных, экспрессивных, аккумулятивных аспектов каждого языкового явления в силу общности национального языка и национального мышления стало главной задачей этого направления. Ведь узбекская среда также диктует период анализа языка вместе с его владельцем в сообществе таких факторов, как социальная среда, культура, национализм.

В этой статье невербальная единица (по умолчанию) языка, служащая для выявления эвфемистических, (например, медицинских эвфемизмов) значений языка как средства реализации лингвопрагматики, подвергается анализу в сравнении с такими вербальными единицами, как синонимия, градуонимия, антонимизация, perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, frazeologizm, evfemizatsiya.

Ключевые слова: *вербальная коммуникация, медицинское эвфемистическое значение, синонимия, градуонимия, антонимия, perifraza, metafora, эвфемизм, невербальные средства: тон, тишина*

Abstract. Situationalness is inherent in speech communication, therefore both its forms and expressiveness are diverse. However, since Leeson's speech and its derivative is an activity associated with communicativeness, expressiveness, accumulativeness, its result is also characterized by the power of the influence of speech, by the fact that the intended goal is achieved

from speech. It is clear that verbal communication differs from the simple embodiment of linguistic possibilities in one or another material form.

Currently, linguocognitology is conducting research work in Uzbek linguistics as a new direction, within which they begin to determine the cognitive characteristics of language units. The study of cognitive, expressive, accumulative aspects of each linguistic phenomenon, due to the commonality of the national language and national thinking, has become the main task of this direction. After all, the Uzbek environment also dictates the period of analysis of the language together with its owner in the community of such factors as the social environment, culture, nationalism.

In this article, the non-verbal unit (by default) of the language, which serves to identify euphemistic (for example, medical euphemisms) meanings of the language as a means of implementing linguopragmatics, is analyzed in comparison with such verbal units as synonymy, graduonymy, antonymization, paraphrase, metaphor, metonymy, synecdoche, irony, idiom, euphemization.

Key words: *verbal communication, medical euphemistic meaning, synonyms, gradonyms, antonyms, paraphrase, metaphor, euphemism, non-verbal means: tone, silence*

Kirish. Har qanday tilning boyligi o'sha til birliklarining qo'llanilish imkoniyatlari darajasi bilan o'lchanadi. Milliy til o'sha til egalari ma'naviyati, madaniyati, saviyasini belgilovchi; millatni millat qilib shakllantiruvchi, xalqni xalq sifatida yuksaltiruvchi beqiyos omildir, zero. Ma'lumki, muayyan millatning paydo bo'lishi, shakllanishi va yuzaga chiqishi etnomadaniy hodisa hisoblanmish milliy til bilan chambarchas bog'liq. Millatparvar yurtdoshimiz Abdurauf Fitrat to'g'ri ta'kidlaganidek: «Millatning o'zligini, dunyoda borligini, o'ziga xosligini belgilovchi omillardan asosiysi uning ona tilidir» [1].

Demak, til millat bilan vobasta. Millatning yaratuvchisi onalarimiz. Shuning uchun ham tilga nisbatan *ona tili* birligi ishlatilishi tabiiy hol. Ha, tilga *ona tili* darajasining berilishi unga xalq tarafidan, uning sohiblari tomonidan ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasidir. Dunyo tillari ichida o'zbek tili tilning asosiy funktsiyalari – kommunikativ, ekspressiv hamda akkumulyativ vazifalarini bajarishda, ya'ni rang-barang nutqiy voqeliklarni yuzaga chiqarishda, butun olamning o'zbekcha lisoniy manzarasini yaratishda o'ziga xos keng imkoniyatlarga ega. Buni mazkur tilning axborot berish va axborot qabul qilish (lokutiv), muayyan muloqot nutqida tinglovchiga emoional-ekspressiv ta'sir ko'rsatish (lingvopragmatik), yozma manbalarda biror voqelikni, predmetlikni yoki harakat-holatni tasvirlash yoki tavsiflash (simvolik) usullarida aniq kuzatish mumkin.

Shu o'rinda e'tiborimizni tilning lingvopragmatik xususiyatiga qaratamiz. (Tanlangan mavzu bilan bog'liq tarzda keltirilgan misollarda soha lingvistikasiga, jumladan, shifokorlar va ularning nutqidagi lingvopragmatik jihatlarga e'tibor qartamiz.)

Natijalar va muhokama. Lison va uning voqeligi bo'lmish nutq shunchaki gapirish yoki nimanidir yozib qo'yish emas. Lison insonning, qolaversa, butun boshli xalqning madaniyati, ma'naviyati, uning tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatuvchi oyna sanaladi. Odatda, kundalik hayotimizda ma'lum bir voqelik haqidagi axborotni, shuningdek, shu voqelikka bo'lgan munosabatimizni, hissiy kechinmalarimizni ifodalashda turli lingvistik yoki paralingvistik vositalardan foydalanamiz. Zero, voqelikni ifodalashda bir qancha usullar mavjud bo'lib, ular kommunikativ intensionaning yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Tilshunoslikda kommunikativ intensionaning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi sinonimiya, graduonimiya, antonimizatsiya, perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, frazeologizm, evfemizatsiya, epitet kabi bir qancha hodisalar mavjudligi tilshunoslarga yaxshi ma'lum. Jumladan,

Sinonimlar, shaklan har xil, ammo aynan bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan birliklar sifatida nutqni boyitib turadi. Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo'lgan, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabatdir. Masalan, *kasal* (arabcha so'z)

– **bemor** (forscha soʻz) – **notob** (forscha soʻz) – **betob** (forscha soʻz) – **nosogʻ** (forscha soʻz) – **xasta** (forscha soʻz).

Baʼzan bu soʻzlarga maʼnodosh sifatida *tani xasta* birligi ishlatiladiki, u *bemor* yoki *kasal* soʻzlariga nisbatan maʼnoni taʼsirliroq ifodalaydi.

Hayotimiz va tani xasta salomatligimiz yoʻlida oʻz huzur-halovatidan kechib xizmat qiladigan bu sharaflı kasb egalarini har qancha eʼtirof etsak arziydi. Ayniqsa bugungi pandemiya davrida tunu kun mehnat qilib kasallikka qarshi kurashishda jasorat koʻrsatayotgan, bemorlarning salomatliklari yoʻlida koʻrsatayotgan fidoyiliklari tahsinga sazovor.

Yaratgan egam, sendan qalbi koʻr, qalbi bemorlarga va tani xastalarga shifo berishingni soʻraymiz. Bizni bu dardlardan yiroq qil!

Graduonimik lugʻaviy birliklar oʻzaro maʼnoviy munosabatiga koʻra maʼlum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan maʼlum. Gʻayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, **boʻlmagʻur** (holat) – **beʼmaʼni** (odat) – **nomaʼqul** (farzand) – **nodurust** (yumush) – **tuban** (kishi) – **jirkanch** (jinoyat) – **rasvo** (koʻrinish) – **yaramas** (odat) – **razil** (odam) – **qabih** (ish).

Boʻlmagʻur leksik birligida yaramaslik yoki jamiyat belgilab qoʻygan odob-axloq meʼyorlaridan, insoniy fazilatlaridan chekinish holatini koʻrsatuvchi belgining pastroq darajada ifodalanishi kuzatiladi. Masalan,

Sohada shifokorlarning bemorlar sogʻligiga befarq boʻlishi, xodimlarning korrupsiyaga berilishi kabi boʻlmagʻur holatlar kuzatilganligini inkor etib boʻlmayapti. (<https://t.me>)

Shifokorning bemordan nimanidir tama qilib turishidek boʻlmagʻur holatni koʻrgan emasman. (<https://twitter.com>)

Razil yoki *qabih* leksik birliklarida esa sanab oʻtilgan illatlar belgisi yuqori darajada ekanligini kuzatamiz. Masalan,

Xullas, shifokor toʻgʻri odam boʻlganligi uchun bu razil odamlarni oʻzidan uzoqlashtiribdi. ...Nasiba opa avval bolalar xonasiga, keyin jonlantirish boʻlimiga kirib chiqdi. Bola erda ham, koʻkda ham yoʻq, izsiz gʻoyib boʻlgan edi. Ertasi kuni tongda xiyobonni tozalashga kelgan farrosh oʻrindiqlardan birida sovuqdan muzlab qolgan chaqaloq jasadini topdi. Bu «mehrison» shifokorning qabih ishi edi... (<http://darakchi.uz/>)

Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, boʻyoqchilar birgina qora rangning hatto oʻndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatliy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi boʻlganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *shifo–davo – malham* kabi.

Antonim leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning inʼikosi boʻlgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Masalan, *Yurtimizda tajribali shifokorlar koʻp. – Umrin bino boʻlib bunday noʻnoq doʻxtirni koʻrmagan edim.*

Perifrazalar nutqda oʻz nomiga ega boʻlgan denotatni baholovchi, boʻyoqdorlik asosida qayta nomlovchi birliklardir. Masalan, *Hozirgi tahlikali kunlarda, butun dunyo ahli koʻrinmas yov bilan kurashayotgan bir darvrda, ayniqsa, jonlarini garovga qoʻyib, betoblarga yordam koʻrsatayotgan shifokorlarning sharaflı va mashaqqatli kasbini yana bir bor madh etish ayni muddao boʻlsa kerak.* (<http://uchildiz.uz/>)

Salomatlik – tuman boylik, degan hikmat zamirida olamcha maʼno mujassam. Inson sogʻlom boʻlsa hayot tatiydi, baxt tatiydi. Zamondoshlariga ana shunday baxt ulashayotgan salomatlik posbonlariga hamisha omad tilab qolamiz. (<http://uchildiz.uz/>)

Dunyoda mutaxassisliklar koʻp. Shulardan biri shifokorlikdir. Butun er shari aholisi pandemiya holatini boshdan kechirayotgan bir paytda bu kasb egalariga har qachongidan koʻproq ehtiyoj sezildi. Inson omili bosh masalaga aylandi. Zero, inson omili, avvalo, uning jisman, ruhan salomatligi bilan bogʻlanishi sir emas. Buyuklarimiz bejizga aytishmagan: «Sogʻlom inson tabiatning eng noyob boʻlagidir». Balki shu sabablidir boshqa kasblarga (masalan, oʻqituvchilik, murabbiylik yoki muhandislikka) nisbatan shifokorlik kasbi bilan bogʻliq tibbiy metaforalar,

tibbiy o'xshatishlar, tibbiy frazeologizmlar yoki tibbiy evfemizmlar o'zbek nutqida ko'proq uchraydi. Zero, hayotda ham «bitta mohir vrachning tajribasi ko'pchilik jangchi-askarlar mahoratiga teng». (Gomer)

Metaforalar o'zaro o'xshashlik asosida ko'chadi, ya'ni nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishidir. Har bir sohaning o'z metaforalari mavjud. Jumladan, tibbiyot sohasiga tegishli metaforalarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Hozirgi pandemiya sharoitida metiniroda shifokorlarimiz ko'rinmas yov oldiga birinchilardan bo'lib kurashga chiqdilar. (<http://uchildiz.uz/>)

Eng muhimi, azalqo'rg'on xalqimiz sog'-salomat bo'lib, bu hayotdan mamnun yashasinlar. Shu ezgu maqsad yo'lida yengilmas tog' shifokorlarimiz kunu tun el xizmatida. (<http://uchildiz.uz/>)

Frazeologik birliklar leksik-semantik jihatdan tildagi turg'un birikmalar bo'lib, tibbiy frazeologizmlarga quyidagilarni misol keltirish o'rinli:

Men sizdan davo topdim, jonga jon shifokorlar,

Maqsadi salomatlik, mehribon shifokorlar.

Insonning hayotiga chang solsa agar bir xavf, Ilmini qurol qilgan posbon shifokorlar. (P.Mo'min)

O'zbek nutqida tibbiy evfemizmlar eng ko'p uchraydi. Bunday birliklarni nutq egalarining o'zi nutqiy sharoitga moslab yasab olishaveradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nutqqa ta'sirchanlik va yoqimlilik bag'ishlovchi, aytilmoqchi bo'lgan axborot (fikir, mulohaza)ni yumshoq va odobli qilib ifodalashga xizmat qiluvchi birliklar evfemizmlar sanaladi. Evfemizmlarda qo'pol, beadab, ta'qiq so'z yoki ibora madaniy shaklda pardali qilib aytiladiki, bu hol, bir tomondan, nutq madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek xalqining milliy o'zligi bilan aloqador.

Ha, «yaxshi gapirmoq», «silliq so'zlamoq» ma'nolarini beruvchi evfemizm atamasi muloqot jarayonida so'zlovchining nutqini qo'pol, madaniyat doirasidan tashqaridagi so'zlarni qo'llashdan yoki tinglovchining «ko'ngliga tegishi mumkin» bo'lgan noqulay so'zlarni ishlatishdan saqlash bilan bog'liq, ammo bu evfemizmlar qo'pol, noqulay ma'noni beruvchi so'z ifodalagan mantiqni bermaydi degani emas. Zero, evfemizm ifodaga ijobiy yondashuv orqali yuzaga keladi [1;2;15].

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, evfemizmlardan muayyan kasb egalari, ayniqsa, yozuvchi va shoirlar ko'proq foydalanadilar. Ammo shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ijtimoiy hayotimizda faoliyat ko'rsatayotgan har bir kasb egasi, qolaversa, o'zini madaniyatliman deb hisoblagan yoki shunday hisoblanishni istagan har bir kishi evfemizmlardan to'g'ri va o'rinli foydalanishga harakat qilmog'i zarur. Va yana nutqda evfemizmlardan foydalanish kishining farosatlilik darajasini belgilovchi me'yorlardan biri hamdir.

Demak, inson istalgan davraga, avvalo, o'z so'zi bilan kirib boradi. SHu boisdan nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki jahon lisonshunosligida ham til va madaniyat munosabati, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar hamda til sohibi nutqi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar dolzarblik xususiyatini yo'qotmaydi. Chunonchi, evfemizmlar, ularning kasbiy xoslanishi ham shular jumlasidan.

Kundalik hayotda turli toifa, turli yosh va turfa dunyoqarashga ega kishilar bilan eng ko'p muloqot qiladigan kasb egalaridan biri – shifokorlar.

Boshi yostiqqa etgan inson zoti borki, davo istab shifokorning og'ziga qaraydi. Shifokorning bir og'izgina so'zi yo bunyod etadi, yo barbod qiladi. Demak, nutqiy evfemizmlarga boshqa kasb egalaridan ko'ra shifokorlar ko'proq ehtiyojmand.

Azal-azaldan shifokorlar o'zlarining iliq muomalalari va yuksak bilimlari bilan bemorlarning dardiga malham bo'lishgan, ularni davolashgan. Tib ilmining bilimdoni Ibn Sino bu xususda shunday yozib qoldirgan ekan: «Shifokor bosiq, sinchkov va, albatta, shirinsuxan bo'lishi zarur. Agarda u shirin so'zlari bilan bemorini davolanishiga ishontira olsa, dardga qarshi bemor hamda shifokor bir yoqadan bosh chiqarib kurashadi va dardni albatta engishadi. Mabodo, shifokor bemorini o'z gapiga ishontira olmasa, unda dard bemorni ruhan o'ziga sherik qilib oladi.

Ular birlashib shifokorga qarshi turadi. Tabiiyki, bunda muolaja ancha qiyin kechadi, ba'zan samara bermasligi ham mumkin».

XXI asr tibbiyoti bemorning dardiga davo topishda faqat ilmiy asoslangan tibbiy bilimlargagina tayanish samara bermasligini, bu borada, avvalo, bemorning ruhiyatini so'z bilan davolash, ya'ni uning psixologiyasiga lingvota'sir singishi muhimligini to'la-to'kis asosladi. Zero, bugun haq gapni bilishning o'zigina kifoya emas. Haq gapni tinglovchiga qanday etkaza olish haq gapning o'zidan-da muhimroq. Fikrimizni qadim rivoyat asosida dalillaymiz:

Bir podshoning tushida barcha tishlari to'kildi. Bu tushdan nihoyat xafa bo'lib, erta bilan ta'bichini chaqirib, ko'rgan tushini aytib berdi.

Ta'birchi dedikim:

–Podshoning barcha bolalari va xotinlari, yaqinlari o'z undan oldin o'ladilar.

Podshoni bu ta'bir juda qattiq qayg'uga soldi. Podshoning buyrug'i bilan ta'birchining barcha tishlarini ombir bilan sug'urdilar va tilini kesdilar. Boshqa ta'birchini chaqirtirib, ul tushni bunga ham bayon etdilar. Ikkinchi ta'birchi juda dono va xushtabiat kishi erdi. Ul dedi:

– Ey podshoh, bu tushingiz umringizning uzoqligidan dalolatdir. Siz barcha bolalaringiz, xotiningiz va yaqinlaringizdan ko'ra uzoq umr ko'rasiz.

Bu ta'bir podshoga yoqib, unga ot va kiyim bilan ming tanga pul berdi va dedikim:

– Agarchi bu ikki ta'birning mazmuni birdir. Lekin birinchi ta'birchi yomon iborat bilan so'zlab, o'zini halokat chohiga tashladi. Ikkinchi ta'birchi esa, yumshoq so'z bilan ishora qilib, davlat bayrog'ini ko'kdan oshirdi. (<http://xorazmiy.uz/>)

Asab asrida yashayapmiz. Odamlarga bir gap kamlik, ikki gap ko'plik qiladi. Shunday sharoitda inson, ayniqsa, shifokorlar «topib gapirish»ni bilishlari juda-juda zarur. Oliy tibbiy ma'lumot olgan har bir shaxsdan tortib yuqori malakali yaxshi vrachgacha barcha-barchasi bemorlar bilan doimiy muloqotda bo'ladi. Demak, kasb taqozosi ulardan nafaqat jiddiy maxsus tayyorgarlikni, balki yuksak g'oyaviy va axloqiy xislatlar egasi bo'lishni ham talab qiladi. Butun er yuzida shifokorlik hurmatli kasb egasi bo'lgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Shifo ahlining bemorga xayrixohligi, iliq muomalasi, insoniy munosabati, avvalo, shifoga muhtoj kishining ruhiy dunyosida muvozanat o'rnatadiki, bu bemorning o'z dardiga to'g'ri munosabatini shakllantiradi. Abu Ali ibn Sino ta'biri bilan aytganda, vrach – bemorning do'sti, ustoz va yordamchisidir. Mas'uliyatli bu vazifani bajarish uchun unda kasbiy bilim va tajribadan tashqari, insoniy fazilatlar – rahm-shafqat, vijdon, iymon-e'tiqod, bir so'z bilan aytganda yuksak darajada madaniyat va ma'naviyat shakllangan bo'lishi zarur.

Ko'pincha, bemorning nozik tana a'zolarida illat, dard paydo bo'lishi bemor va shifokor muloqotini og'irlashtiradi. Ana shunday paytlarda tibbiy efemizmlar mazkur jarayon uchun yordamga keladi. Buni ba'zi misollarda ko'ramiz.

Havo o'tkazmaydigan har qanday tagliklar esa yorg'oqning qizib ketishiga olib kelib, o'g'il bolalar jinsiy rivojiga salbiy ta'sir etishi bois xatarli hisoblanadi. (“Shifo-info”, 2016. №13. – B.34.)

Ro'y bergan avariya qizning ko'payish a'zosiga qattiq ta'sir ko'rsatgan. Biz uni zudlik bilan jarrohlik stoliga yotqizishimiz kerak.

Sochiqlardan foydalanishda ham e'tiborli bo'lish foydadan xoli bo'lmaydi. Nozik sohalar uchun sochiqlar ham toza, yumshoq va, eng asosiysi, shaxsiy bo'lmog'i zarur. (“Shifo-info”, 2016.№20. –B.34.)

Bemorda peshob tutilishi kuzatilgani bois unga ujestostoma o'rnatiladi. SHu usulda adenomaning peshob chiqarish kanalini bevosita ezib turuvchi qismi olib tashlanadi. (“Shifo-info”, 2016. №20. –B. 47.)

Bo'qoq kasalligini vaqtida davolamasangiz, agar siz tug'ruq yoshida bo'lsangiz, homilador bo'lishingiz muammoga aylanadi, chunki yod tanqisligi ayolning nasl qoldiruvchi xususiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. (“Doktor press”, 2016.№26. –B. 7.)

Keltirilgan misollardagi yorg'oq, ko'payish a'zosi, nozik sohalar, peshob chiqarish kanali, nasl qoldiruvchi xususiyat kabi tibbiy metaforik efemizmlarni nutq jarayonida qo'llash bemor uchun ham, shifokor uchun ham noqulaylik tug'dirmaydi. Misollardan ko'rinadiki, milliy

dunyoqarash tilning metaforik tayanchlari bilan uyg'un, ikkilamchi nominatsiya mexanizmi va mahsuli bo'lgan ko'chimlarda evfemizmlar etakchi o'rin egallaydi.

Shu o'rinda metaforik evfemizmlar xususida biroz to'xtalamiz.

Metaforik evfemizmlar milliy-mental munosabatning borliqni aks ettirishida namoyon bo'ladi, u madaniy qadriyatlarning tilda namoyon bo'lishini ko'rsatadi, metaforada aniqlik va ta'sirchanlik, jozibadorlik bilan birga mavhum munosabat ham kuzatiladi. Shuni muhimki, metaforik evfemizm nutqiy shaxsning qanday lingvomadaniy muhitga daxldorligi, tafakkur tarzi va til bilimiga bog'liq holda sodir bo'ladi. Metaforali evfemistik ifodalar asosiy axborot mazmuni va uning ustida qavatlangan konnotativ ma'no hamda munosabatdan tashkil topadi. Axborot evfemistik konnotativ ma'no bilan murakkablashadi, konnotativ ma'nolar sirasida metaforik obrazga asos bo'lgan salbiy yoki ijobiy munosabatdan biri etakchilik qiladi. Konnotativ ma'noning kuchayishi denotativ va funktsional ma'noning kuchsizlanishiga ko'ra vujudga keladi.

Shifokor, aslida yaxshigina notiq, psixolog, pedagog bo'lishi kerak. To'g'ri, aslida shifokor ham oddiy inson. U ham ota, ona, kimningdir turmush o'rtog'i yoki yaqini. U turmush ikirchikirlari, xizmat vazifasi davridagi qiyinchilik, kasalga tashxis qo'yish bilan aloqador murakkabliklar boshdan kechiradi, ertalabdan kechgacha ishlashdan jismonan toliqadi, ba'zan stress holatiga uchraydi. Demak, bunday vaziyatlarda shifokor, avvalo, murakkab psixiologik holatdan o'zini o'zi olib chiqishi kerak. Bu esa vrachning kuchli irodasi, ma'naviy madaniyatining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq.

Garchi tibbiy diskurs ham boshqa preskriptiv va direktiv hujjatlar diskurslariga qo'yiladigan talablarga bo'ysunsa ham, uning barcha ko'rinishlariga har doim ham rioya qilinavermaydi. Diskursning mezonlari hamisha ham mutlaq va qotib qolgan holatda emasligiga ushbu dalillar asos bo'la oladi:

Bemorning orqa chiqaruv yorig'idan chiqqan gemrroidal tugunlar mustaqil o'z joyiga tushmaydi va uni faqat bosim ostida o'z joyiga tushirish mumkin. (<http://tmatm.uz/>)

Gapiradigan kasallik (gemorroy) to'g'ri ichak pastki qismlari va orqa chiqaruv teshigi atrofidagi vena qon tomirlarining kengayib, shishish kasalligi hisoblanadi. (<https://daryo.uz>)

Demak, tibbiy diskursda nutqiy muloqot madaniyati birliklarini muayyan sharoitda bemorning ahvoli, jinsi, ruhiyatiga qarab shifokorning o'zi yaratadi. Tom ma'noda, tibbiy evfemizm – shifokor va bemor muloqoti jarayonida aytilishi uyat, qo'pol yoki muloqot a'zolarini noqulay holatga soladigan (so'z, ibora, so'z birikmasi, gap ba'zan matn kabi) birliklar hamda kasallikning maxfiyligini saqlash uchun tibbiyot terminlari o'rnida qo'llaniladigan, shuningdek, bemor ruhiyatiga shikast etkazmaslik maqsadida, odatda, shifokor tomonidan ishlatiladigan nutqiy hosilalar. Ya'ni shifokorning metaforik tafakkurda o'z kasbi bilan bog'liq yangi obraz yaratishi. Metaforik tibbiy evfemizmlar – nutqiy san'at, yaratilma, zaruriy topilma. Zero, so'zlovchi ichki sezimining kuchi, idrokining teranligi metaforada, bu kuch va teranlik darajasi esa ularning metaforik topilmalarida yuzaga chiqadi. Metaforaning qimmatli noodatiyligi va hamisha yangilanib turishidir. Tibbiy metaforik evfemizmlar bemorning holati haqidagi yalang'och haqiqatni yangi – muloyim, silliq shakl qoliplariga solish demakdir.

Umuman, tibbiy metaforik evfemizmlar shifokordan tafakkurning yuqori darajasiga ko'tarilishni, voqelikni ifodalashda reallik hamda noreallikni muvofiqlashtirishni, aniqrog'i, ulardagi muvofiqliklarni anglashni talab etuvchi tafakkur usulidir.

Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borilsa, shunchalik yangidan-yangi qirralar kashf etilaveradi. Demak, tibbiyot xodimlari eng avvalo, inson qalbiga chuqur kirib borishi, unga yo'l topishi kerak. Shifokorlar zimmasida aholining sihat-salomatligi va hayotini saqlashdek g'amxo'rlik mas'uliyati bor ekan, ular o'z kasblariga halol, yuksak mas'uliyat hisi bilan yondashishi, ma'naviy burchlari va deontologik madaniyatiga sodiq bo'lishlari muhim.

Vaholanki, davo jarayonida so'z qudratli qurol, tengsiz malham, yarim shifo demakdir. Odamzodga so'z ta'siri har qanday malhamdan yuqoriroq turishi sir emas. So'z ruhni davolaydi. Buqrot hakim aytganidek: "Inson ruhini davolamay turib, tanga shifo berib bo'lmaydi". (<https://beproclub.com.pl/pediatriyada-hamshiralik-ishi-kitobi/>)

Ammo diskursda tibbiy evfemizmlarni qo'llashning o'zigina kifoya emas. Shifokorning so'zlash ohangi, hatto saqlagan sukuti ham o'rinli, nutqiy sharoitga mos bo'lishi zarur. Agar shifokorning so'zlash ohangida beparvolik, qo'pollik, bepisandlik yoki nosamimiylilik sezilsa, har qanday evfemik birlik ham ta'sir kuchini yo'qotadi.

Nutqning asosiy noverbal komponentlaridan biri ohangdir. Murakkab va, ayni paytda, mazmunan, shaklan va mavzu doirasi jihatidan nihoyatda rang-barang, betakror nutqiy muloqotda verbal vositalar bilan birga noverbal vositalar ham muhim o'rin tutadi. Ba'zan nutq jarayonining shakli faqat noverbal bo'lishi ham mumkin. Albatta, bu nutqiy sharoit, ijtimoiy muhit, kommunikantlarning til sezgirliigi kabi qator faktorlarga bog'liq.

Masalan,

Kechasi allamahalda Qodirali otaning umr yo'ldoshi Hafiza ayaning ahvoli og'irlashib qoldi. Chaqirilgan "tez yordam" chilar ancha kechikib kelishdi. Qodirali ota oq xalatlil vrach bilan xamshiraga yo'l boshlar ekan, yo'l-yo'lakay xotinining holatini tushuntirishga urindi...

–Vahima qilmang, ota, qon bosimi keksalarning ko'pida bor, – dedi beparvo ohangda vrach... (http://shifokorvahayot.uz/)

Parchadan ma'lum bo'ladiki, so'zlovchi (shifokor)ning gap ohangidagi *beparvolik ohangi* tinglovchi (bemorning yaqini)gayoq salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHifokorning o'z kasbiga mas'uliyatsizligi uning so'z ohangidan bilinib turibdi.

Misol.

–Kecha nima ovqat yegandingiz?

Asablarim taranglashib ketdi. Yana shu savolmi? Ertalabdan buyon barcha ko'rgan shifokor shu savolni berdi. Ammo natija bo'lgani yo'q. Onamdan oldin javobga shoshdim.

–Ilgari kuni anorli salat bilan osh eganlar. Kecha manti qilgandim.

–Tushunarli,–dedi shifokor mening jahlimga qarshi o'laroq samimiylat bilan. – Onaxonni qabziyat qiynayapti. Manavi doridan ikki dona olib chiqing. Tuzalib ketadilar.

... Ko'p o'tmay onajonimning ko'zlari porlab, oyoqqa turdilar.

Shifokor:

– Yaxshisi, – dedi shifokor menga iltimos ohangida xuddi o'z onasi haqida qayg'urayotgandek, – onaxonga tez-tez suyuq ovqatlar tayyorlab bering. Salomat bo'linglar! (http://fsh.uz/)

Shifokorning bosiqliigi, o'z kasbining bilimdoni ekanligi, asosiysi, muomalamunosabati bemorga ham, uning yaqinlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganligini parchadan anglab olish qiyin emas.

Agar diskursda so'zlovchining maqsadi nutqda ifodalanayotgan biror fikrni asosiy nutq voqeligiga aylantirmoqchi (gap qo'zg'amoqchi, e'tibor qarattirmoqchi, ba'zan shu orqali biror axborotga ega bo'lmoqchi) bo'lganda rag'batlantiruvchi ohangdan foydalanadi. Misol,

–Eh, yengilgina dardga ham odam cho'zilib yotaveradimi? – dedi xona kirib kelgan shifokor ko'tarinki ohangda xuddi eski qadrdonlardek.

Karim so'lg'in jilmaydi. Endi dardini boricha aytmasa bo'lmasligini angladi.

Nutqning asosiy noverbal komponentlaridan yana biri sukutdir. Har qanday faoliyat o'zining amaliy qimmati bilan ahamiyatli. Nutq muloqot faoliyati bo'lganligi uchun uning samarasi ham nutqning ta'sirchanligi, ma'lum bir maqsadga erishganligi bilan belgilanadi. So'zlovchi va tinglovchi (kommunikant)larning bir-biriga ta'siri, ma'lum maqsadni yuzaga chiqarish darajasi muloqot jarayonining amaliy samarasi hisoblanadi. Zero, nutqiy muloqot oddiy nutq(lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda voqelanishi)dan farqlanuvchi, o'zining murakkabligi, verbal va noverbal, shuningdek, milliy, etik, estetik, etnografik, psixologik, ijtimoiy kabi tarkibiy qismlarning o'zaro uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan situativ pragmatik butunlikdir.

Sukut birligiga o'ta murakkab, o'ziga xos oniylik (situativlik), muayyan kommunikantlar, zamon va makon, shart-sharoit, maqsad/sabab va oqibat bilan uzviy bog'langan o'ta qisqa bir zamonda sodir bo'ladigan pragmatik sistema bo'lgan nutqiy muloqotning asosiy tarkiblaridan biri sifatida qaralishi zarur [5;6;7].

Shifokor va bemor oʻrtasidagi diskursda sukut – muhim noverbal kommunikativ vosita turi. Tibbiyotning otasi Gippokrat shunday yozgan edi: «..*hakim, tashxis qoʻyish va davolashning katta koʻlamiga, bemorning nafaqat joriy kasalligini, balki, undan avvalgi yuz bergan betobliklarini va ulardan qolga asoratlarni ham hisobga olishi zarur. Hakim bemor ham boshqa barcha odamlardek oddiy odam ekanligini, uni anglash uchun boshqalarni ham anglash lozimligini unutmaslik kerak. Uning uchun haattoki **bemorning sukuti** ham koʻrsatma boʻlib xizmat qilishi kerak*».

Tom maʼnoda, sukut ham tibbiy evfemik maʼnolarni yuzaga chiqaruvchi, tibbiy evfemizmlarning taʼsir kuchini oshiruvchi noverbal pragmalingsistik hodisa sifatida baholanishi oʻrinli.

Xulosa. Demak, har qanday tilning boyligi oʻsha til birliklarining qoʻllanilish imkoniyatlari darajasi bilan oʻlchanar ekan, bemalol ayta olamizki, oʻzbek tilning ijtimoiy-ruhiy taʼsir doirasi nihoyatda keng va rang-barangdir. Insonning jismi joni, ruhiyati, maʼnaviyati, maʼrifati bilan bogʻliq holda faoliyat yuritadigan istalgan yoʻnalish vakillari, jumladan, tibbiyot xodimlari oʻz sohalari nuqtayi nazaridan olamning milliy lisoniy tasvirlarini sintezlashga va ularni oʻz faoliyatlariga mos holatda olib kirishga erisha olmoqlari muhim.

Zero, olamning milliy lisoniy tasvirlarini sintezlash insoniyat ongida uning olam bilan barcha aloqalari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu borada tilning verbal (simonimiya, graduonimiya, antonimizatsiya, perifraza, metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, frazeologizm, evfemizatsiya va b.) va noverbal (ohang, sukut) birliklari lingvopragmatikani amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. <https://ziyouz.uz>
2. Маҳмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора// Ўзбек тили адабиёти.– Тошкент, 2013. – №4. – Б. 5.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi oʻzbek tili. Darslik. – Germaniya: “Globe Edit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020.–555 b. <http://yuldasheva.buxdu.uz/>
4. R.K.Ashurbaeva. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308>
5. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>
6. Дилором Юлдашева. Нуткий мулоқотда сукутнинг ўрни. Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020). <http://interscience.uz/index.php/home>
7. Дилором Юлдашева (Dilorom YULDASHEVA). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>
8. Юлдашева Д. Н. Сукут нуткий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. www.tadqiqot.uz
9. Tueva Zulfiya Nozimovna, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Statement and about its types. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag.72-77. <https://elibrary.ru/item.asp?id=44644256>
10. YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf

11. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 124 б.

12. Dildora Yunus kizi Yusupova. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag. 384-389. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/367>

13. Chullieva Gulchekhra Toshpulot qizi. Intonation. Intonema, its structure. Functions of intonema. Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 141-148. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/179>

14. G.T.Chullieva. Intonema and its Types. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/314>

15. Ғайбуллаева Н. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2019.

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR MINBARI 5

Хамидов Обиджон Хафизович. Sadriddin Ayniy yurtida adib nomidagi xalqaro elektron jurnalga asos solindi..... 5

САДРИДДИН АЙНИЙ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИГА ДОИР ТАДҚИҚОТЛАР 6

Қиличев Эргаш Ражабович. Садриддин Айний – сўз санъаткори 6

Охунжон Сафаров. Устод Айнийнинг мусиқа ва санъат аҳлига муносабати 14

Ҳаққулов Иброҳим Чориевич. С.Айнийнинг мумтоз ва замонавий ўзбек адабиётини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси 20

Нуралӣ Нурзод. Бозтоби наврӯзи Бухоро ва оинҳои он дар “Ёддоштҳо”-и устод Айний 22

Ҳасанов Шавкат Аҳадович. Ижодкор шахсияти ва воқелик талқини 32

Ғайрат Муродов. Садриддин Айнийнинг романнавислик маҳорати 38

Ахмедова Шоира Нематовна. Садриддин Айний асарлари ва жаҳон адабиёти 44

Ўраева Дармоной Саидахмедовна. Садриддин Айнийнинг фольклордан фойдаланиш маҳорати 49

Қувватова Дилрабо Хабибовна. Ўзбек насри тараққиётида Садриддин Айнийнинг ўрни 54

Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович. Садриддин Айний – адабиётшунос 58

ФОЛЬКЛОРШУНОСЛИК ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ 62

Арипова Халима Ариповна. Особенности изучения поэмы на уроках литературы в 8 классе 62

Камолов Ихтиёр Нигмуталлаевич. Захриддин Муҳаммад Бобур замондошлари нигоҳида 69

Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi 73

Sharipova Raxima Muxtorovna. Yangi o'zbek she'riyatida qor tasvirining berilishi 77

Azimova Muhabbat Samadovna. Sadriddin Salim Buxoriy she'riyatida badiiy san'atlar 80

Қудратова Муборак Шухратовна. Асқар Маҳкам шеърлятида илохий-ирфоний мотивлар тадрижи 84

Saidova Nodira Mustakimovna. Rahim Vohidovning “Yog'di o't ustiga qor...” tadqiqotida tahlil va talqin mahorati 89

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI 94

Шоҳида Шаҳабитдинова, М. Қосимова. «Бахтлилик ва бахтсизлик» концептуал бинар оппозицияси ифодаловчиларининг луғатлардаги таҳлили 94

M.M.Juraeva. The category of modality in linguistics and its features (on the example of french and uzbek fairy tales) 102

Джураева Зулхумор Раджабовна. «Маскулинность» и «феминность» как ключевые категории гендерной лингвистики 108

Dilorom Nigmatovna Yuldasheva. Sukut lingvopragmatik birlik sifatida 114

Toirova Guli Ibragimovna, Chudakova Vira Petrovna, Quziyeva Taxmina Faxriddinovna. Integral raqamli vositalardan foydalanish jarayonida o‘zbek tiliga moslashtirilgan qisqartmalarni yozish xususiyatlari	123
Khamidova Muborak Khafizovna, Ibodova D.N. Expression de dépoétonymes dans des formes et des styles traditionnels.....	131
Sharipov Ma‘mur Mansurovich, Martina Martausova. Lingua-cultural characteristics of the concept of the servant in English literature.....	134
Muxlisa Choriyeva Jumamurodovna. Representation of the model «Pride» in the lexical-semantic field	138
Karimova Shakhnozakhon Karimovna. Artistic functions of elements of poetic syntax in poetry.....	142
RETRO	147
“Таҳсиб ус-сибён” хикматлари	147
ФИЛОЛОГИЯ ИЛИМИДАГИ ЯНГИ ҚАДАМЛАР	149